

2 noyabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari univertitetida "Axborot texnologiyalarining rivojlantirish istiqbollari" mavzusi doirasida "**Informatika va kommunikatsion texnologiyalar ICISCT-2017**" nomli xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi o'z ishini boshladi.

Konferensiyada Litva Xalqaro Elektronika va Elektrotexnika muxandislar instituti a'zosi, Siauliai universiteti professor Vaidas Giedrimas va Xalqaro Elektronika va Elektrotexnika muxandislar institutining Avstriya qismi a'zosi Miroslav Skoric taqdimot qilishi ko'zda tutilgan.

Ushbu konferensiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 13 fevraldagi 126-f-sonli farmoyishiga asosan, Xalqaro Elektronika va Elektrotexnika muxandislar instituti (IEEE) hamkorligida tashkil etilmoqda. Konferensiya o'z ishini 2-4 noyabr kunlari davom ettiradi.